

Ma'nodosh so'zlar ustida ishlash

Z.Isaqov – Qo'qo'n DPI dotsenti,
G.Asqarova – Qo'qon DPI magistranti

Sinonimlar “bir nomli” degan ma'noni bildirib, shakli har xil bo'lsa ham, ma'nolari bir-biriga yaqin bo'lgan so'zlar sanaladi. Ma'nodosh so'zlar bir xil predmetlarni (o't, olov, gulxan), predmetning bir xil belgisini (chiroyli, go'zal, lobar, suluv), bir xildagi harakatni (yugurmoq, chopmoq) bildiradi. Ma'nodoshlarda umumiy va xususiy ma'nolar farqlanadi. Umumiy ma'no bir necha so'zni birlashtiruvchi ma'no: taom, yemish, xo'rak so'zlarining umumiy ma'nosi “ovqat”dir. Lekin har bir so'zda xususiy ma'no ham mavjud. Taom insonga nisbatan ishlatilsa, yemish va xo'rak ko'proq hayvonlarga nisbatan qo'llaniladi.

Sinonimlarning quyidagi turlari mavjud: 1) leksik ma'nodoshlik; 2) frazeologik ma'nodoshlik; va 3) leksik-frazeologik ma'nodoshlik¹. Leksik ma'nodoshlikdan til birliklarining takrori natijasida yuzaga keladigan ifoda kambag'alligi va g'alizsizligidan qochish uchun foydalaniladi. To'rtinchi sinf “O'qish kitobi” darsligi²da ma'noni kuchaytirish, ifodani yorqinlashtirish maqsadida sinonimlardan foydalanilgan o'rinlarni kuzatsak: Shukur Sa'dullaning “Laqma it” asarida:

“Na uyi bor, na boshpana
Hech kimi yo'q – yakka yana.
Dang'illama va serhasham,
Havasing kelsin biram.
Yoz kelsin-chi, quray bir uy,
Bir saroyki, tengsiz... voy-bo'y.
Qor yog'adi gupillatib,
Molxonani do'pillatib
O'tib ketdi bilinmay yoz,
Kuz boshladi: sovuq, ayoz”.

Uy va boshpana so'zlari bir turkumga mansub bo'lib, ot sanaladi va sanash orqali ma'no kuchaytiruvchi uslubiy xossaga ega, bu so'zlarga yotoqxon, manzilgoh so'zlari ma'nodoshlik hosil qiladi.

Hech kimi yo'q iborasi yakka sifati bilan ma'nodoshlikni yuzaga keltirgan bo'lib, ibora hamda so'z (frazeologik-leksik)ning o'zaro ma'nodoshligi sanaladi, bu o'rinda yakka so'zi ajratilgan sifatlovchi hisoblanadi, yolg'iz, tanho so'zlari bilan ma'nodoshdir³.

Dang'illama sinonimik qatorda dominanta bo'lib, hashamatli, serhasham, muhtasham leksemalari bilan ma'nodoshlikni yuzaga keltiradi. Hashami, tuzilish-

¹ Asqarova M., Qosimova M., Jamolxonov M. Ўзбек тили. –Т: Ўқитувчи, 1989. – Б.29.

² Matchonov S. va bosq. O'qish kitobi. 4-sinf uchun darslik. – Toshkent: Yangiyo'l, 2013. – 240 b.

³ Ҳожиёв А. Ўзбек тили синонимларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1974. – Б.93. (Keyingi o'rinlarda O'TSIL deb keltiriladi).

ko‘rinishi zo‘r. Hashamatli, serhasham so‘zlarida belgi darajasi kuchliroq (O‘TSIL – B.84).

Tengsiz, voy-bo‘y so‘zlari kontekstual sinonim bo‘lib, matn uchungina ma‘nodosh sanaladi, negaki sinonimlik faqat bir so‘z turkumi doirasida bo‘lishi kerak, ammo bu o‘rinda tengsiz sifat turkumiga, voy-bo‘y esa undov so‘z turkumiga mansub bo‘lsa-da, mana shu o‘rin uchun shartli ravishda sinonimlik yaratilgan. Gupillatib, do‘pillatib so‘zlari ma‘noviy sinonim bo‘lib, holatni kuchaytirib yetkazish maqsadida ishlatilgan. Sovuq so‘zi ham ma‘noviy sinonim bo‘lib, holat ayoz leksemasi bilan kuchaytiriladi.

Abdulla Oripovning “Iqboli buyuksan” she‘ri (4-5-bet)da “Sen o‘zbek elining farzandi, Istiqlol yurtining dilbandi”, Muhiddin Omonning “Gulg‘unchalarmiz”she‘ri (18-)da:

“Ilm-u hunar bilan dunyoni olgan,
Buyuk allomalar – **avlod**larimiz.
Go‘zal san‘atiga jahon lol qolgan,
Ijodkor zotlarning **zurriyot**imiz”.

Banddagi avlod va zurriyot so‘zlari uyadosh so‘zlar bo‘lib bu o‘rinda o‘qituvchi ikki so‘zning sinonimlari ustida ishlasa maqsadli bo‘lur. Avlod qarindosh, urug‘, tug‘ishgan, jigar, jigarband, jigargo‘sha, xesh so‘zlari bilan ma‘nodoshlik ifodalab, tug‘gan-tug‘ishganlik munosabatidagi shaxslarni bildirsa, zurriyot so‘zi farzand, bola, zurriyot, tirnoq so‘zlari bilan sinonimlashib, er-xotinning o‘zidan dunyoga kelgan zotni ko‘rsatadi (O‘TSIL – B.207-250).

Shukur Sa‘dullaning “Kuz” she‘ri (21-bet)da: “G‘ir-g‘ir **shamol** yeladi, Buni hamma biladi. O‘giradi yelga yuz” misralari mavjud. Shamol, shabada, yel, sabo so‘zlari ma‘nodosh bo‘lib, havo oqimining gorizontali yo‘nalishdagi harakati (O‘TSIL – B.227) ni ifodalaydi. She‘rda shoir takrori yo‘qotish maqsadida shamol so‘zining ma‘nodoshini ishlatib, nutqning boy ifodasini ko‘rsatadi.

Munavvarqori Abdurashidxonovning “Har kim ekanin o‘rar” asari (31-32-bet)da: “Non yeganda lablari Burni bilan so‘zlashur. Choy ichganda qo‘llari **Qaltirashib, titrashur**” so‘zlari sinonimi bir o‘rinda keltirilgan.

Titramoq, qaltiramoq, qalt-qalt qilmoq, dildiramoq (diydiramog), dir-dir qilmoq sinonimlari titroq, qaltiroq holatida bo‘lmoqlikni bildirib, titrash jonli va jonsiz narsalarga, qaltiramoq esa asosan odamga nisbatan qo‘llanadi va ma‘noni titroq so‘ziga nisbatan kuchli ottenkada ifodalaydi. Dildiramoq, diydiramog sovuq ta‘sirida bo‘ladigan titrash ma‘nosida qo‘llanadi (O‘TSIL – B.195). Cholning qaltirashi, titrashi keksalikning sifati qilib ifoda etilgan xolos.

Shukur Sa‘dullaning “Tinchlik qushi haqida men o‘qigan she‘r” (184-bet)da: “Bilsin urishqoq, jallod, Qotil, odamxo‘r, battol” misrasida urishqoq, jallod, qotil, odamxo‘r, battol so‘zlari ma‘nodoshlik hosil qilgan.

Ba‘zi o‘rinlarda sinonim so‘zlar asarda qator keltirilmagan bo‘lsa-da, shu so‘zlarning lug‘aviy ma‘nosini ochishda ma‘nodoshlari bilan ishlash ta‘lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Quadrat Hikmatning “Qish to‘zg‘itar momiq par”she‘rida “Yerga **serbar** oq **namat** Yozilganday yaltirar” misrasida serbar, namat so‘zlari ustida ishlanadi.

Serbar Eni keng; enli. Serbar chit. *Mirzo Ulug'bek belidagi serbar kamariga osilgan kalitni olib, eshikning qulfini jaranglatib ochdi*⁴.

Namat (forscha – kigiz) Yungdan bosib ishlangan palos, kigiz. *Chaylaning oldiga solingan namat ustiga oyoqlarini uzatib o'tirdi* (O'TIL. T.3. – B.15). She'r misrasini “Yerga keng oq kigiz solinganday yaltirar” gapi orqali izohlasa bo'ladi

Tursunboy Adashboyevning “Qish” (90-bet)da “*Quyvon po'stin tikibdi O'ziga oq tivitdan*” misrasidagi tivit so'zining ma'nodoshlari orqali so'zning ma'nosi yorqinlashtiriladi. Tivit – hayvonlarning nozik va mayin juni; shu jundan to'qilgan, ishlangan mato; shu matodan ishlangan, tikilgan narsa. *Sifatli tivit olish maqsadida har yili qishlovga puxta tayyorgarlik ko'ramiz* (O'TIL. T.4. – B.82).

Abdulla Oripovning “Sharq hikoyasi” she'ridagi “*Ahmoq ekan bular rosa, Insofi yo'q lavanglar*” misrasidagi lavang (so'zlashuv tilida ishlatiladi, adabiy tilda lavand (forscha – bo'sh, dangasa, bekorchi) so'zi ustida ishlanadi: O'zini-o'z udda qilolmaydigan, qo'lidan biror ish kelmaydigan, shalviragan, bo'shang, noshud. *Boq endi ibrat ila, bo'lma ko'p lavand-u go'l* (O'TIL. T.2. – B.482).

G'afur G'ulomning “Ola buzoq” she'rida “Katta bo'lsin ola buzog'im, Ovunchog'im, erkam, **ma'rog'im!**” misrasidagi ma'rog' so'zining ma'nosi izohlanadi. Ma'ramoq fe'lidan yasalgan, q tovushi egalik ta'sirida g' tarzida aytiladi, buzoqni erkalatib shoir yangi so'z yasab ma'rovchi sifati o'rnida maroq so'zini hosil qilgan.

Anvar Obidjonning “Jo'ja” she'ridagi “Yorib chiqdim tuxumni, Shunday **shovvoz** jo'jaman. Tanib oldim buvimni, Ko'zi **charos** jo'jaman” misralaridagi shovvos, charos so'zlarining ma'nodoshlari ustida ishlanadi. Shovvoz (forscha – lochin) Har qanday ishni eplay oladigan, qoyil qiladigan epchil; azamat. *Odamning shovvozi qo'riq ochadi* (O'TIL. T.4. – B.1587). Charos – o'rtapishar, yumaloq qora uzum. She'rda uzumning sifatlari ko'chma ma'noda go'zal, qop-qora, charos ko'z mazmunida ishlatilgan.

Miraziz A'zamning “Mardlik va aql yorug'ligi” she'rida “Ilmsiz mardning esa Holiga yig'lar maymun” misrasidagi ibora ustida ishlashda uning lug'aviy ma'nosini izohli lug'at bilan ochish samarali sanaladi. **Maymun** (arabcha – baxtli, omadli; maymun) **1** Tana tuzilishi va qiyofasi odamga o'xshash, sutemizuvchilarning yuksak rivojlangan turkumiga mansub hayvon. **Holiga maymunlar yig'laydi** Juda ayanch, og'ir ahvolga tushdi (O'TIL. T.2. – B.529) ma'nosini bildiradi. Bu o'rinda frazeologik-leksik ma'nodoshlik yuzaga keltirilgan.

⁴ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: ЎМЭ, 2006. – 3-том. – Б.482. (Keyingi o'rinlarda O'TIL deb keltiriladi).